

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar .....	21
<b>Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich</b>	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari .....	24
<b>Abdullayev Farxod Ozodovich</b>	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
<b>Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna</b>	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
<b>Idirisov Alisher Otajonovich</b>	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
<b>Abdiev Jaxongir Ibragimovich</b>	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
<b>Djumaniyazov Marks Quranbaevich</b>	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi .....	60
<b>Shaislamova Nargiza Kabilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
<b>Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li</b>	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
<b>Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna</b>	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi .....	79
<b>Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich</b>	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....	87
<b>Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich</b>	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
<b>Абдиуалиева Гулзада Азатовна</b>	
How does foreign direct investment promote economic growth? .....	98
<b>O'tkirova Bonu Azamat kizi</b>	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
<b>Umarov Abduvaxob Tursunovich</b>	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
<b>Mirkomil Boboyorov Murodullaevich</b>	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
<b>Imomov Xolmurod Norqul o'g'li</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili .....	119
<b>Maksudov Abdumalik Xodievich</b>	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish .....	124
<b>G'ofurov Temur Baxrom o'g'li</b>	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....	129
<b>Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li</b>	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b>	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili .....	139
<b>Abduraimova Nigora Radjabovna</b>	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon .....	143
<b>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</b>	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) .....	151
<b>Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich</b>	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
<b>Гаппарова Майрамхон Зафар кизи</b>	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari .....	161
<b>Nosir Maxmudov, Lola Azimova</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari .....	167
<b>Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan</b>	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
<b>Sherxon Tuychiyev</b>	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
<b>Ergashev Jahongir Baxodirovich</b>	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari.....	180
<b>Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich</b>	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
<b>Azizova Zilola Lochin qizi</b>	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari .....	191
<b>Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich</b>	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
<b>Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi</b>	
Анализ прибыли агропромышленности .....	204
<b>Гафурова Азизахон Фатиховна</b>	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach .....	209
<b>Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna</b>	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries .....	213
<b>Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli .....	216
<b>Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich</b>	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
<b>Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич</b>	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
<b>Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
<b>Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
<b>Zarina Ashurova</b>	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
<b>Mannonov Shahzod Istam ugli</b>	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri.....	250
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbaevich</b>	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari.....	258
<b>Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich</b>	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении.....	266
<b>Муминов Фазлиддин Хусниддин угли</b>	

# TURIZMDA INNOVATSIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li

TDIU "Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrası  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda 2016-yildan boshlab turizmni rivojlantirishga, uning infratuzilmasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Turizmni iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohasi sifatida rivojlantirishga kirishildi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish doimiy nazoratga olindi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, xalqaro turizm, ekoturizm, infratuzilma, innovatsiyalarni jalb qilish, xizmat ko'rsatish, diqqatga sazovor joylar.

**Abstract:** In our country, since 2016, special attention has been paid to the development of tourism and improvement of its infrastructure. The development of tourism as a strategically important sector of the economy has been started. The development of tourism infrastructure and the formation of its components were constantly monitored.

**Key words:** Economy, international tourism, ecotourism, infrastructure, attraction of innovations, service, attractions.

**Аннотация:** В нашей стране с 2016 года особое внимание уделяется развитию туризма и улучшению его инфраструктуры. Начато развитие туризма как стратегически важной отрасли экономики. Развитие туристической инфраструктуры и формирование ее составляющих постоянно контролировались.

**Ключевые слова:** Экономика, международный туризм, экотуризм, инфраструктура, привлечение инноваций, сервис, достопримечательности.

## KIRISH

Turizm infratuzilmasini shakllantirish va uni takomillashtirishni amalga oshirishni maqsad qilib olgan ekanmiz, eng avvalo, infratuzilma nima, uning tarkibiga nimalar kiradi degan savollarga javob topishimiz lozim. Infratuzilma (lotincha "Infra" - ostida, pastda, "struktura" – tuzilma, joylashuv) soha yoki tarmoqning ishlashini ta'minlaydigan va uning tarkibiy qismlari bir-biriga bog'langan holda xizmat ko'rsatish tuzilmalari yoki obyektlar birlashmasidir. Infratuzilmalar maqsadi va vazifalariga ko'ra bir qator ko'rinishga ega bo'ladi. Biz bularning ichida maqsaddan kelib chiqqan holda ko'proq iqtisodiy infratuzilmaga to'xtalamiz. Iqtisodiy infratuzilmaga transport, aloqa, kommunikatsiya, ta'lim va kommunal xo'jalik, turarjoy, turmush tarziga o'rgatish, aholining birgalikda hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondirish majmui kiradi. Kengroq yondoshadigan bo'lsak, iqtisodiy infratuzilma aholi hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xo'jalik va madaniy obyektlar, uning xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarini tashkil qiluvchi (yo'llar, kanallar, omborlar, transport, aloqa, energetika, suv ta'minoti, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy tashkilotlar va h.k.) mahalliy boshqaruv majmuasi bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qaralsa, turizm infratuzilmasi ham sohasining ajralmas ikki asosiy qismini o'z ichiga oladi<sup>1</sup>.

Birinchi asosiy qism – bu turizm industriyasini tashkil qiluvchi mehmonxona, joylashtirish vositalari va restoran, ovqatlantirish xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilotlar kiradi.

Ikkinchi asosiy qism – infratuzilmani tashkil qiladigan tarkibiy qismlar bo'lib, uchta tizimni o'z ichiga oladi<sup>2</sup>. Infratuzilmaning birinchi tizimi turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo turistik xizmatlarni taqdim etish uchun zarur bo'lgan energetika, kommunal xizmatlar, moliya, sug'urta, aloqa, xavsizlik tizimlarini o'z ichiga oladi.

Infratuzilmaning ikkinchi va uchinchi qismiga turmahsulotlarni ishlab chiqarishga to'g'ridan to'g'ri xizmat qiladigan, turistik obyektlar, avtomobillar ijarasi, taksi parklari, kinoteatrlar, muzeylar, ko'rgazma zallari, sport klublari, parklar, zooparklar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar kiradi.

Turizm infratuzilmasi o'z tarkibiga joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, mehmon uylar, hostellar, kempinglar, motellar), ovqatlantirish korxonalar (kafe, bar, restoran), transport tarmog'i (magistrallar, temir yo'llar, aeroportlar, portlar h.k.), kommunikatsiya tarmoqlari (elektr, oqova suv, aloqa bo'limlari), huquq-targ'ibot tashkilotlari, tibbiy, maishiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, sovg'a do'konlari, sport inshootlarini birlashtiradi va turistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan chambarchas bog'langan.

1 A.H. Норчаев. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари. DSc диссертация. ТДИУ, 2021 й.

2 <https://studbooks.net>. Элементы и функции туристической инфраструктуры.



Turizm infratuzilmasi turistik xizmatlar ko'rsatuvchi zaruriy shart-sharoitlarni, turistlarning xavfsizligi, sog'lik-salomatligini ta'minlashga qaratilgan. Hammamizga ma'lumki, turistlar qaysi mintaqada sayohatlarga sharoit yaratilgan bo'lsa (tinchlik, osoyishtalik), o'sha joyga borishni ma'qul ko'radi. Sababi shuki, turist sayohati davomida avtobusdami, poyezddami, mehmonxonadami, restorandami qayerda bo'lsa ham o'zini xavf-xatardan yiroqda sezishi zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm infratuzilmasini takomillashtirishning nazariy va metodologik masalalari bilan iqtisodchi olimlardan S.S. G'ulomov, Q.X. Abdurahmanov, N.T. To'xliyev, M.Q. Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M. Abduvohidov, M.T. Aliyeva, A.N. Norchayev, D.X. Aslanova, B.N. Navro'z-zoda, O.M. Pardayev, B.H. To'rayev, O.H. Xamidov, B.Sh. Safarov, N.S. Ibragimov, S.S. Ro'ziyev singari olimlarning ilmiy ishlarida turizm infratuzilmasi rivojlantirishini samarali boshqarish, turistik resurslardan oqilona foydalanish, sohani rivojlantirishdagi muammolar va hududiy turizmni rivojlantirish masalalariga keng e'tibor qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida qayd etilgan olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari turistik sayohatlarni tashkil etish, yuqori darajada xizmatlarni o'zlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, sohaga zamonaviy boshqaruvni olib kirishga va infratuzilmani takomillashtirishga yetarlicha hissa qo'shganla. Shuningdek, ular tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, hududiy turizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholining bandligini ta'minlash, davlat xususiy sherikligi asosida sohani rivojlantirish, tarmoqlararo faoliyatni muvofiqlashtirish singari masalalar yetarli darajada o'rganilmaganligi sababli turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsiyalarni joriy qilish mexanizmlari bilan bog'liq omillarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda global bozorda mahsulotlar va xizmatlar mijozlarning xohishiga qarab ishlab chiqarilayotganiga qaramay, turizm boshlanish nuqta sifatida doimo mahsulotlarni va xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatlaridan kelib chiqib yondoshiladi. Lekin mahsulotlar va xizmatlarni takomillashtirishda innovatsiyalardan keng foydalanish maqsad qilinadi. Innovatsiya degan so'zni eshitganimizda, birinchi navbatda, xayolimizga yangi g'oyalar, yangi texnologiyalar, ishlab chiqarishdagi kashfiyotlar, barqaror rivojlanish, infratuzilma, mehnat unumdorligini oshirish, ilm-fan yutuqlari, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi dizayn ishlanmalari, yangi servis xizmati ko'rsatish, dunyoqarashning o'zgarishi kabilar keladi. Shulardan kelib chiqqan holda turizmni ham, asosan, xizmat ko'rsatish jarayonlaridan iboratligini nazarda tutsak, bu soha moliyaviy va ma'muriy ta'sirga ega bo'lsa ham texnologik o'zgarishlarni amalga oshirish juda qiyin bo'ladi. Turizmga zarur bo'lgan texnologiyalarni va yetakchi mutaxassislarni jalb qilish doimiy ravishda qiyin amalga oshirilgan. Innovatsiyalarni turizmning qaysi sektorlarida amalga oshirish mumkin, uni amalga oshirishda nimalarni hisobga olish kerak degan savollar yuzaga keladi. Turizmda innovatsiyalarni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirish mumkin:

-qamrab olish ko'lemi. Innovatsiya turizmning barcha tarmoqlari, alohida belgilangan korxonalar, mintaqa, mamlakat, hudud, shahar, yangi turistik mahsulot ishlab chiqish yoki mavjudlarini modernizatsiyalash, ma'lum bir turistik obyekt miqyosida joriy etilishi mumkin;

-joriy etish. Turistlarga ma'lumotlar berish platformalarida, xodimlarni boshqarishda, yangi ish o'rinlarini ochishda, mehmonxonalarni bron qilishda, xususiy mehmon uylarni ochishda mikrokreditlashni amalga oshirish, servis sohasini texnik jihatdan qo'llab-quvatlash, aeroportda onlayn-ro'yxatga olishlar kiradi.

-tatbiq etish tezligi. Har bir mamlakat maqsaddan kelib chiqqan holda strategik innovatsiyalar bosqichma-bosqich, xavfsizlik nuqtayi nazaridan asta sekinlik bilan tatbiq etiladi (transport, kommunikatsiya), reaktiv innovatsiyalarni joriy etish qisqa muddatda tezkor amalga oshirilishi talab etiladi. Bunda, asosan, siyosiy voqeeliklar va bozordagi raqobatchilar (viza siyosati) harakati hisobga olinadi.

Turizm infratuzilmasiga innovatsiyalarni joriy qilishda, birinchi navbatda, tabiiy geografik omillar, ob-havo sharoitlaridan va tarixiy-madaniy merosdan kelib chiqib yondoshish talab etiladi. Ularni to'g'ri yo'naltirish orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, sohani rivojlanishining salohiyatini oshiradi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun innovatsiyalarni qo'llashda yirik loyihalarni va murakkab texnologiyalarni amalga oshirish talab etiladigan jarayonlar ham kuzatilgan bo'lib, uni BAAning Dubay shahridagi "Emirates Mall" da barpo etilgan tog' chang'i trassasini misol tariqasida olishimiz mumkin. Bu yirik loyiha izchillik bilan amalga oshirilgan bo'lib, turistlarni va mahalliy aholining kayfiyatini ko'tarish uchun amalga oshirilgan. Bu kabi ba'zi bir yirik infratuzilmaviy loyihalarni hisobga olmaganda turizm, asosan, kichik biznesga tayanadi.



Masalan, O'zbekiston joylashuv o'rniga ko'ra ajoyib iqlim, go'zal tabiat, boy tarixga ega mamlakat hisoblanadi. Shu bilan birga, "Buyuk Ipak Yo'li"ning chorrahasida joylashgan. Bu kabi imkoniyatlar turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy etmasa ham raqobatbardoshlikni saqlab qoladi degan tushunchani paydo qiladi. Misol qilib oladigan bo'lsak, Misr Arab Respublikasidagi ehromlar shu kungacha o'zgarishsiz holda butun dunyodan millionlab sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Misr qirg'oqlarini Qizil va O'rtayer dengizi suvlari yuvib turadi, bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda tashrif buyurayotgan turistlar ta'tilni ikki qismga bo'ladi. Bular tarixiy-sarguzashtli sayohat va plyajdagi hordiq chiqarishdir. Bu kabi sayohatlarni tashkillashtirish Gretsiya, Turkiya, Hindiston, Tailand, Ispaniya, Vyetnam, Isroilda ham keng joriy qilinishi katta samara bermoqda.

Bizning republikamizga o'xshash bo'lgan, ya'ni dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlarda turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xizmatlarni tashkil qilish va turistlarni kengroq jalb qilish uchun innovatsiyalarni keng qo'llash orqali imkoniyatlari nisbatan yuqori bo'lgan davlatlar bilan raqobatga kirishishni talab qiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda innovatsiyalarni qo'llash va uni amalga oshirish bosqichlari ketma-ketligini bilishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun quyidagilarni puxta egallash lozim bo'ladi:

- innovatsiyalar ko'lamini jihatidan butun tarmoqni, alohida korxonani, mamlakat, shahar, yangi turistik mahsulotlarni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish, turistik obyektlar miqyosida joriy etishni;

- innovatsiyalarni joriy qilishda, birinchi navbatda, turistlarning qidiruvida yordam beruvchi platformalarda, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni boshqarish va ularni ish bilan ta'minlashda keng qo'llash kerak. Shu bilan birgalikda, subsidiyalar, mikrokreditlar va davlat-xususiy sheriklik shakli bilan qo'llab-quvvatlanuvchi mexanizmlar orqali ovqatlanirish korxonalari, transport tashkilotlari, mehmonxonalar, mehmon uylarni ochish, texnik xizmatlar ko'rsatishni (masalan, aeroportda onlayn ro'yxatga olish);

- innovatsiyalarni joriy qilish tezligi. Bunda strategik innovatsiyalar har bir sohada asta-sekin tatbiq (transport kommunikatsiyalari) etiladi. Buning aksi sifatida reaktiv innovatsiyalar joriy qilish (turistlarni ko'proq jalb qilishni istagan mamlakat uchun vizaning bekor qilinishi) jadal kechadi.

Shu bilan birgalikda, innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonlari bosqichma-bosqich bo'lib, juda ham ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki innovatsiyalarga sarflangan mablag'lar biror bosqichda noto'g'ri amalga oshirilsa, barcha qilingan harakatlar bekor ketishi mumkin.

Birinchi bosqichda g'oyalarni bir tizimga keltirib olish talab qilinadi. Bunda yuzaga kelgan yangi g'oyalarni amalda qo'llash uchun ichki imkoniyatlar aniqlanadi. Yangi g'oyalarning bir qancha muqobillari ham yuzaga chiqishi mumkin bo'lib, ularning ichida kelajagi bor deb qaralgani tanlab olinadi. Tanlab olingan g'oya turistik kompaniyaning bozordagi imiji va rivojlanish strategiyasiga mos kelishi aniqlanadi va bo'lajak yangi xizmatni amalga oshirish belgilab olinadi.

Ikkinchi bosqichda aniqlangan g'oyani amalga oshirish uchun bozordagi o'zgarishlar bo'yicha axborotlar yig'ila boshlanadi. Yig'ilgan axborotlar tahlil qilinib, bozorga taklif etilishi kutilayotgan xizmatni amalga oshirish uchun turistik kompaniyaning salohiyati, imkoniyatlari va tavakkalchilik darajasi va uning me'yorlari belgilanadi.

Uchinchi bosqichda yangi xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, uning marketing xarajatlari va dasturlari ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda, g'oya aniq loyiha ko'rinishiga o'tganda turistik bozorning mavqeyi, talab va taklif, iste'mol xususiyatlari juda katta ahamiyatga ega. Bunda yangi xizmatlarni yaratish va o'zlashtirishdagi xarajatlarni hisoblash, resurslarning mavjudligiga ishonch hosil qilish, moliyaviy manbalarni aniqlash, kadrlar salohiyatini baholashni amalga oshirish lozim. Shundan so'ng yangi xizmatlarni ishlab chiqish muddatlari, uning rentabelligini baholash va uni bozorga taqdim etish amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqichda oldingi uchta bosqich amalga oshiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, turistik kompaniyalarda innovatsiyalarni amalga oshirish naqadar murakkab jarayon ekanligi ayon bo'ladi. To'rtinchi bosqichda asosan yuqoridagilar bilan birga quyidagilar amalga oshiriladi:

- kompaniya bo'limlari o'rtasida amalga oshiriladigan ishlarni taqsimlash va yangi xizmatni yaratishning aniq dasturi ishlab chiqiladi;

- yaratilgan xizmat turi bo'yicha ekologik, xavsizlik va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;

- xizmat turining nomlanishi, tovar belgisini aniqlash va yangicha yondoshuvlar amalga oshiriladi.

Beshinchi bosqichda bozorda bevosita test o'tkaziladi. Bunda kamida uch oy maboynida narx va narxlarga chegirmalar taqdim etish, kreditlar berish bo'yicha sinovlar olib boriladi. Shu bilan birgalikda reklama turlari va amalga oshirish usullarini tanlash, kutilmagan vaziyatlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish tekshiriladi.

Oltinchi bosqichda yaratilgan xizmat turini bozorga kiritish bo'yicha qaror qabul qilinadi va yangi xizmat turini ko'rsatish boshlanadi. Bunda doimiy ravishda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, rentabelligi, talab va ehtiyojlarni qondirish darajasi, xizmat ko'rsatish usullari nazorat qilib boriladi. Shu bilan birgalikda:

- bozorni egallash, turistik kompaniyaning obro'si, mijozlar bilan doimiy aloqalar;


- mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, malakali xodimlar bilan shartnomalar tuzish;

- yangi xizmat turini keng ko'lamda ishlab chiqish uchun moliyaviy manbalarni topish, investitsiyalarni jalb qilish;

- yangi xizmat turini xalqaro standartlarga moslashtirish, patentlashtirish ishlari amalga oshiriladi.



Yuqoridagi ko'rib o'tilgan omillarning barchasi muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, har qanday turistik kompaniya faoliyatida innovatsiyalarni joriy qilsa, bozorni egallash va maksimal darajada foyda olishga erishadi. Natijada turistik kompaniya bozorda monopol mavqega ega bo'lib olishi ham mumkin.



1-rasm. Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni bosqichlari<sup>3</sup>.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, innovatsiyalarni qanday va qayerda qo'llashni bilish ham kerakligini o'rganishni taqozo etmoqda. Har doim har joyda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda yangiliklar mavjud bo'lishi lozim. Turistik xizmatlarga talab taklifni yuzaga chiqaradi. Turistlar yangi xizmatlarni yaratishda qatnashibgina qolmasdan bevosita iste'molchi ham bo'ladi. Turizmدا innovatsiyalarni qo'llashda marketologlar turistlar sigmentini va nimalarga qiziqishlarini doimiy ravishda o'rganib borishi bilan birga ular nimalarni istashlarini aniqlaydi. Aynan shu kabi ma'lumotlar turistik bozorda qaysi xizmatlarga talab yuqori va talabni qondirishda qanday innovatsion yechim topishga xizmat qiladi. Masalan, ekoturizm rivojlangan G'arbiy YEvropa, Shimoliy Amerika va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida turistlarni qishloqlardagi mehmon uylarda yoki oilalarda, tabiat qo'ynida bo'lgan vaqtlarida ularga maksimal sharoitlar yaratish uchun innovatsiyalardan keng foydalanilmoqda. Shu singari mehmon uylar egalari turistlarni qabul qilish uchun barcha sharoitlarni yaratmoqda.

Turizmدا innovatsiyalar keng qo'llanilayotgan yana bir yo'nalish muzeylardir. Muzeylarda virtual xizmatlar keng joriy qilinmoqda. Turistlar internet orqali mashhur muzeylarga sayohat qilish, noyob eksponatlarni ko'rish, butun muzey bo'ylab aylanish imkoniyati yaratilmoqda. Bunda turistlar muzeylarga kelmay turib, uning zallari bo'ylab sayr qilishi, eksponatlar haqida axborotlar olishi va tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin. Bu sohaga innovatsiyalarning keng joriy qilinishiga sabab shuki, hozirda turistlar orasida muzeylarga tashrif buyurish tez ommalashmoqda. Masalan, dunyoga mashhur Luvr milliy san'at muzeyi 1793-yil 8-noyabrda ilk marotaba ommaga o'z eshiklarini ochgan bo'lsa, bugungi kunda yiliga 10 milliondan ortiq tashrif buyuruvchilarni qabul qilmoqda. "The Art Newspaper" nashri har yili dunyoda eng ko'p tashrif buyurilgan muzeylar ro'yxatini e'lon qilib boradi. Hozirda dunyoda 60-80 tagacha ana shunday millioner muzeylar faoliyat olib bormoqda. "The Art Newspaper" jurnali tomonidan tuzilgan ro'yxatga ko'ra Xitoy Milliy muzeyi (Pekin) 7390000ta, Vatikan muzeyi (Vatikan) 6882931ta, Metropolitan San'at muzeyi (Nyu York) 6 479 548ta, Britaniya muzeyi (London) 6239983ta, Tate Modern muzeyi (London) 6098340ta, Milliy Galereya (London) 6011007ta, Ermitaj davlat muzeyi (Sankt-Peterburg) 4956529ta, Museo Reina Sofia muzeyi (Madrid) 4425699ta, Milliy san'at galereyasi (Vashington) 4074403ta tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatgan. Bu muzeylar o'rtasidagi raqobatdan yengib chiqishda innovatsion texnologiyalarga talab ortib bormoqda.

Turizm infratuzilmasining tarixiy rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, innovatsiyalarni joriy qilina boshlangandan keyin (o'tgan asrning 70-yillaridan keyin) misli ko'rilmagan yutuqlarga erishilmoqda. Turizm infratuzilmasi texnologiyalarning o'zgarishlariga qaramasdan innovatsiyaga asoslangan rivojlanish yo'lidan bormoqda. Turizm oldingi texnologik o'zgarishlarga qaraganda hozirda yangi texnologiyalarni qo'llashda boshqa sohalarga qaraganda oldingi o'rinlarda bormoqda.

3 Muallif tomonidan tavsia etiladigan turizmда инновацияларни амалга ошириш bosqichlari.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida tahlil qiadigan bo'lsak, birinchidan, ilmiy-texnologik innovatsiyalar asosiy omil sifatida olinganda odamlarning yashash sharoitini, ishlab chiqarishning xususiyatini o'zgartirdi. Shuningdek, innovatsiyalar ishlab chiqarishni qayta shakllantirdi va uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi. Ilm-fan va texnologiyalarning innovatsion rivojlanishi mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirdi va ijtimoiy himoya yaxshilanishi orqali aholi jon boshiga daromadlar sezilarli darajada oshdi, natijada turizm faoliyatining yangicha ko'rinishlarining vujudga kelishini ta'minladi.

Ikkinchidan, ilmiy-texnologik yangilikni joriy qilish aholida ko'proq bo'sh vaqtning bo'lishiga olib keladi. Ko'proq bo'sh vaqt bo'lishi rekreatsion turizmning muhim shartlaridan biridir. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti yuzaga chiqishi bilan boshqaruvni va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirdi. Natijada, odamlarning o'rtacha ish vaqti sezilarli darajada kamayishi natijasida ularning bo'sh vaqtlarida dam olishi va ta'tillarida sayohatlarga chiqishga bo'lgan talabi ortib bordi.

Uchinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar turizm faoliyatini ham mustahkamlamoqda. So'nggi 20 yillikda insonlarning savodxonligi, ta'lim darajasi va hayot faoliyati yaxshilanib borayotganligi sababli ba'zi turistlarda sayohatlardan zavqlanish bilan birgalikda sayohat davomida ilmiy va texnologik innovatsiyalarni ham o'zlashtirishga qiziqishlar ortib bormoqda.

Ilmiy-texnologik innovatsiyalarning joriy qilinishi zamonaviy turizmni amalga oshirishda yuqori talablarni keltirib chiqardi. Bu kabi omillar axborotlarni qayta ishlash, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish, shuningdek, ilmiy yo'nalishda tashrif buyurgan turistlarni qo'llab-quvvatlash va yangi texnologiyalarni qo'llanilish orqali an'anaviy turizmdan farqli o'laroq turizmning yangi turlarini izlashga majbur qiladi.

Ilmiy va texnologik innovatsiyalarni qo'llash turistik xizmatlarning sifatini oshirishini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar turizm mahsulotlarining turlarini ko'paytiradi va ularning hayotiy siklini uzaytiradi. Turistik mahsulotlarni mijozlarga samarali yetkazib berishni yaxshilash va ko'rsatilayotgan xizmatlarni doimiy ravishda yangilashda turizm sanoati innovatsion texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga kiritilayotgan investitsiyalar ham turistik mahsulotlarning hayotiylik siklini uzaytirishga yordam beradi. Bunga misol qilib "Disneylend"ni oladigan bo'lsak, ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirgan holda yangi texnologiyalarni qo'llashga investitsiya kiritishi natijasida barpo qilgan ko'ngil ochish markazlari butun dunyodan turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Ilmiy va texnologik innovatsiyalarning turizm infratuzilmasi rivojlanishiga ta'sirini ko'rib o'tadigan bo'lsak, birinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar transport infratuzilmasida katta ahamiyatga egadir. Yirik avtomagistrallar, mahalliy avtomobil yo'llari, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar, fuqarolik aviatsiyasining jadal rivojlanishi turistlarning harakatlanishini bir necha bor tezlashtirishi bilan birga harakatlanish xavfsizligini oshirdi. Shu bilan birgalikda, transport vositalarining o'zi ham takomillashib borishi va yangi texnologiyalarning qo'llanishi turistlarga xizmat ko'rsatishni sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi. Xususiy avtomobillarning soni ortib borishi, avtomobillarni ijaraga berish imkoniyatlarining yaratilishi turistlar uchun yana bir qulaylikdir. Masalan, Alipay va UnionPay to'lov tizimi tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlarga to'xtaladigan bo'lsak, shaxsiy avtomobilni avtoturargohga qo'yganligi uchun to'lovni elektron amalga oshirish orqali turistlar vaqtini tejash bilan birgalikda navbatlar va tirbandliklarni bartaraf etishga katta yordam beradi. Shu bilan birgalikda, turistik avtobuslarning to'xtash joyini qidirish funksiyasi va turli xil xaritalar va navigatsiya dasturlaridan foydalanish kabi qulayliklarni taqdim etadi. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyani turizmga tatbiq etilishi bilan turistlarning sayohat davomida elektron sayohat kodi, elektron chipta, elektron ro'yxatdan o'tish, yuzni elektron tanib olish orqali ruxsat berish kabi bir qator qulayliklarni taqdim etmoqda.

Ikkinchidan, innovatsiyalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi rivojlanishiga ham ta'sir o'tkazdi. Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari takomillashuvi natijasida turistlar butun sayohat davomida sifatli aloqa bilan ta'minlanishiga erishildi. IoT dasturlari orqali turistlar xohlagan vaqtda uyali telefonlar, shaxsiy kompyuterlar va boshqa platforma qurilmalaridan foydalangan holda turistik obyektlar manzili, marshrutlar sxemasi haqidagi barcha turdagi ma'lumotlari olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, "Virgin" mehmonxonasi innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol qo'llagani uchun mehmonxonaning buyurtmalarini 266 foizgacha oshirishga erishgan.

Uchinchidan, ilmiy va innovatsion texnologik yangiliklar turizm infratuzilmasi boshqaruvini yaxshilamoqda. Bunda, birinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar turistik resurslarni muhofaza qilish va saqlashda katta ahamiyatga ega. Turistik resurslarni (madaniy-tarixiy, rekreasion, ekologik) tasniflash va aniqlash, sotib olish va iste'molni boshqarishni raqamlashtirish jadal olib borilmoqda. Yangi texnologiyalarga asoslangan holda turizm haqidagi turli xil ma'lumotlarni saqlash, resurslarni saralash, boshqarish va hisobotlarni samarali tahlil qilishga yordam beradi. Misol uchun, turizmi oxirgi yillarda tez rivojlanayotgan davlatlardan biri Xitoyning "Dunhuang Academy" akademiyasi fotografik tasvirni olish va qayta ishlash, virtual sayohat, raqamli video, multimedia dis-



pleyi, uch o'lchovli texnologiyalar orqali har bir tarixiy obyektlarni, muzeylardagi eksponatlarning noyob raqamli fayllarini yaratish orqali turistlarning doimiy foydalanish imkoniyatlarini yaratdi.

Ikkinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar turizmga favqulodda yoki kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda uni boshqarishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash turistik marshrutlarda xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda boshqarishni osonlashtiradi va tezlikda bartaraf etishni ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 07-fevraldagi PQ-3514-son Qarori. "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-3551112>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-son Qarori, <https://www.unwto.org/sustainable-development>.
4. B. R. Dehqonov. "Ichki turizmni ta'riflashda bo'lgan qarashlar va turizm shakllarini o'z ichiga olgan bog'liqliklar" Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – №4-1 (88). –Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022 y. –81 b.
5. Dehqonov Burhon. "Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan." Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28-33.
6. Norchayev A.N. "Turizm infratuzilmasida kutilayotgan o'zgarishlar va imkoniyatlar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali (2019).
7. Aliyeva M.T.Xo'jayev O'.X., Norchayev A.N. Turizm rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma." –T.: TDIU. –214 (2006).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

